

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 339.727.22:63 (575.1)

KO'CHQAROV FAYZULLO ABDUJABBOROVICH

**AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: Mamatov Baxadir Safaraliyevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1-§. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda agrar sohaning o' rni va ahamiyati.....	13
1.2-§. Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari.....	25
1.3-§. Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilg' or xorij tajribalari.....	38
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	50
II BOB. O'ZBEKISTONDA AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA INVESTITSİYA FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH AMALIYOTI.....	53
2.1-§. Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti tahlili.....	53
2.2-§. Agrar sohada investitsion faoliyatni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	64
2.3-§. Lizing – agrar sohada investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali usuli.....	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	88
III BOB. AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	93
3.1-§. Agrar sohaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish bilan bog' liq muammolarni bartaraf etish yo' llari.....	93
3.2-§. Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish chora-tadbirlari.....	98
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	108
XULOSA.....	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	118

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida agrar soha iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi, daromad, oziq-ovqat va mehnatning asosiy manbai hisoblanadi. Agrar sohada iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish, asosiy kapitalni modernizasiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi mavjud muammolarning ijobiy yechimi sifatida qishloq xo'jaligiga chet el investitsiyalarini jalb qilishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi assotsiatsiyasi (FAO – Food and Agriculture Organization) hisob-kitoblariga ko'ra, «Dunyo aholisining 67 foizi qishloq xo'jaligida band va agrar soha jahon yalpi ichki mahsulotining 39,5 foizini, global eksportning 43 foizini tashkil qiladi»¹. Dunyo bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sishda davom etmoqda, ammo ochlikni bartaraf etish doimiy muammoligicha qolmoqda. «2023-yilda 713 milliondan 757 milliongacha odam ochlikdan aziyat chekkan va oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelayotgan dunyo aholisining ulushi 2019-yildagi 25,3 foizdan 2022-yilga kelib 29,6 foizga yetgan»². Bunday holat dunyoda to'yib ovqatlanmaydiganlar sonining ko'payib borayotganligini hamda oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelayotgan dunyo aholisi ulushining sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. «Hisob-kitoblarga ko'ra, global miqyosda 2030-yilga qadar ochlikni bartaraf etish uchun yiliga 265 mlrd. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha investitsiyalar talab qilinadi»³. Agrar sohani investitsiyalash dunyoda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan, kam ta'minlangan, nochor oilalarning aksariyati yashaydigan qishloq joylarida kambag'allik darajasini qisqartirishning samarali strategiyasidir. Shu munosabat bilan agrar sohani xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

¹ Глобальный агроэкспорт: ТОП-10 государств и самые сильные сельскохозяйственные страны мира | linDEAL.

² FAO. 2023. Outcomes of the United Nations Food Systems Summit in Europe and Central Asia - A stocktake. Budapest. <https://doi.org/10.4060/cc5319en>. The Food and Agriculture Organization of the United Nations. Отчет Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций за 2022 год.

³ (PDF) Современные тенденции инвестиций в сельское хозяйство Current Trends in Investment in Agriculture (researchgate.net).

va samarali o'zlashtirish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish asosida taraqqiy ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida agrar sohaga investitsiyalar jalb qilish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish foyda olish uchun eng muhim iqtisodiy faoliyatlardan biridir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Bosh kotibi Matias Kormanning so'zlariga ko'ra, «keyingi o'n yillikda innovatsiyalarga sarmoya (investitsiya) kiritish va samaradorlikni oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish mumkin»⁴. Bundan xulosa shuki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning global o'sishiga investitsiyalar hisobiga hosildorlikni oshirish orqali erishiladi va bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini yaratadi. Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tajribalari ko'rsatishicha, «rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga investitsiyalarning yetishmasligi yoki yetarli miqdorda jalb qilinmasligi ularning oziq-ovqat xavfsizligi borasida jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin»⁵. Shu jihatdan agrar sohaga chet el investitsiyalarini jalb qilishdagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishning zarurligi mavzuning dolzarbligini ifoda etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini izchil isloh qilish va taraqqiyotini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan unumli foydalanish, agrar sohada klasterlar faoliyatini takomillashtirish, hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish orqali yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, sohada eksport hajmini oshirish, birinchi navbatda, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishini taqozo etadi. «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq

⁴ Telegram: Contact @avpharm.

⁵ Microsoft Word - K6077R_HELf_2050_.doc (fao.org).